

KITOB O'QISHNING FOYDALI XUSUSIYATLARI

Gapparova Mastona Safaraliyevna

Angren Universiteti Pedagogika psixologiya kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada kitob o'qishning foydali xususiyatlari, avzalliklari, foydali jihatlari, kitob o'qishni kitobxonni fikrlash doirasiga ta'siri hamda inson ruhiyatiga ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Аннотация:** В данной статье представлена информация о полезных особенностях, преимуществах, полезных аспектах чтения книг, влиянии чтения книг на мышление читателя и влиянии на психику человека.*

***Abstract:** This article provides information about the useful features, advantages, useful aspects of reading books, the impact of reading books on the reader's thinking and the impact on the human psyche.*

***Kalit so'zlar:** Kitob, kitobxon, mutolaa, muallif, ma'naviyat, til.*

Allomalar hamisha kitobni aqlni charxlaydigan, ma'naviy yuksalishga yetaklaydigan manbaa sifatida ta'riflaydilar, Masalan, «kitob — aql chirog'i», «kitob — bilim manbai» kabi minglab maqol va matallar mavjud. Keyingi paytda olimlar kitob o'qishning inson ruhiyatiga va salomatligiga ham ta'siri mavjudligini ta'kidlashmoqda. Xo'sh, mutolaaning inson fikratini boyitishdan tashqari yana qanday afzalliklari bor? Mutolaa asabni tinchlantiradi. Chunki, insonni muntazam qiynayotgan o'ylaridan chalg'itadi, yangi olamga olib kiradi. Olam turfaligini anglashga o'rgatadi. Mutolaa uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi. Kitob o'qib, qalb ila turfa olamni eshitgach, o'zining muammolari arzimagan bir kuyinchaklik ekanligini tushinadi. Qalb orom olsa, uyqu ham o'z-o'zidan keladi. Mutolaa qalbni yumshatadi. G'azabni bosadi. Bag'rikenglikka chorlaydi. Pirovardida ruhiyatni yuksaltiradi. Mutolaa miya faoliyatini yaxshilaydi. Natijada eslab qolish xususiyati

kuchayadi. Pedagoglar eslab qolish qobiliyatini kuchaytirish uchun bolalarga muntazam she'r yodlatishi ham ana shundandir. Mutolaa tushkunlikka qarshi kurashishda samarali vosita. Halqimizning «birni ko'rib shukr qil, mingni ko'rib fikr qil» degan maqoli ham bejiz emasligini bu yo'nalish yana bir bor eslatadi. Mutolaa insonga o'z hayotidagi maqsadini anglashga va qiyinchiliklarni yengib yashashga ko'maklashadi. O'qiganlaridan o'rganadi, xulosa chiqaradi. O'z hayotini taroziga solib qiyoslab ko'radi. Fikrlay boshlaydi. Kitob o'qiydigan insonlar hayotda faol bo'lishadi. Muntazam harakatda bo'lish esa salomatlikni mustahkamlaydi. Mutolaa insonning so'z boyligini oshiradi. So'z boyligining yuksalishi ya'ni dilizuvonlik esa har qanday davraga bemalol kirib borish va o'z o'rniga ega bo'lish demakdir. O'qish yangi va noyob fikrlar tug'ilishiga yordam beradi. Mutolaa bizni fikrlashga chorlaydi. Ba'zan, orzularimiz ham biz o'qigan, xursand qilgan kitob bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, mutolaa bizning dunyoqarashimizni boyitadi. Inson o'qish orqali yangi fikrlar va yorqin g'oyalar oladi. Inson o'zi bilmagan holda ilhomlanib o'qishi, yangi va o'zgacha fikrlar yuzaga kelishiga turtki beradi. O'qish inson fikrini jamlaydi va diqqat markazini oshiradi. Mutolaa jarayonida, o'qigan hikoya va asarga butun diqqat-e'tibor qaratiladi. Inson boshqa ishlardan ko'ra kitobga ko'proq diqqat qiladi. Inson miyasi bir vaqtning o'zida turli faoliyatlar bilan shug'ullana olmaydi. Shu sababli ko'p o'qigan odamning diqqatini bir joyga to'plash ancha oson kechadi. O'qish tasavvurni oshiradi. Biz o'zimizga notanish bo'lgan joylar haqida o'qiganimizda, idrokimiz tasavvurlarimiz ishga tushib tasvirlarni miyamizda yarata boshlaydi va shu orqali xotiramizda tasvirlar saqlanib boradi. Binobarin, idrokimizning tasavvur qilishi va yaratuvchanligi kitob o'qish orqali mustahkamlanib boradi. O'qish chet tilini o'rganishni osonlashtiradi. Doimiy ravishda kitob o'qish boshqa tillarni o'rganishda yangi so'zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi. Xorijiy tilni o'rganayotgan kishi o'sha tilning adabiyotlarini muntazam o'qishi orqali o'sha tilni qisqa fursatda o'zlashtirishi mumkinligi olimlar tomonidan isbotlangan. Birgalikda kitob o'qish ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Inson o'z farzandini kitob mutolaasiga o'rgatar ekan,

avvalo o‘zi ham bu ishda o‘rnak bo‘lishi kerak. Psixologlar birgalikda kitob o‘qish jarayonida ota-onalar va bolalar o‘rtasida o‘ziga xos munosabat o‘rnatiladi deb hisoblashadi. Ularning aytishlaricha, bunday munosabat birgalikda televizor ko‘rganda aslo paydo bo‘lmasligini ta’kidlashmoqda. O‘qish sizni zukkolikka yetaklaydi. Kitoblar manbalar va yangi bilimlarning haqiqiy xazinasidir. Shuningdek, ular hozirgi paytdagi turli xildagi o‘quv kurslari ta’limidan ancha arzon hisoblanadi. Qanchalik ko‘p kitob o‘qigani sari insonning zukkoligi va teran fikrlash qobiliyati shunchalik oshib boradi. Shu bilan birga, inson turli mavzularda qanchalik ko‘p kitob o‘qisa, o‘z bilimini oshirishi bilan bir qatorda, o‘zaro muloqot qilish san’atini ham yaxshi egallaydi. O‘qish miya faoliyatini mustahkamlaydi. Inson odatda o‘qigan kitobi to‘g‘risida o‘ylashi uchun vaqti ko‘p bo‘ladi. Emori universiteti olimlari kitob o‘qigan insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo‘lishini isbotlashdi. Tadqiqot mualliflari kitob o‘qish miyadagi asab tolalarini mustahakamlashini ta’kidlashmoqda. O‘qish til mahoratimizni yaxshilaydi. Xorijiy tilda biror adabiyotni o‘qish dastlab katta harakat talab etadi, lekin bu bizning so‘z boyligimiz oshishiga xizmat qiladi. Boshqa tilni tushunishda ba’zan uning turli qismlarini tarjima qilishga ehtiyoj seziladi va ular lug‘atdan qidiriladi. Kitob o‘qish nafaqat so‘z boyligini balki umumiy savodxonlikni ham oshiradi. Qaysi tilda o‘qishdan qat’iy nazar, mutolaa orqali gapning konteksti qay tarzda yasalishini o‘rganish mumkin bo‘ladi. O‘qish stressni kamaytiradi. Inson kitob mutolaa qilar ekan, o‘sha paytda uni hech qanday topshiriq yoki xavotir o‘ylantirmas ekan. Kitob mutolaa qilishda biz ko‘pincha o‘zimizga qulay usulda joylashib olamiz. Tanamiz umuman birorta maxsus harakatni amalga oshirmaydi va dam oladi. Nafas olish sekinlashadi va tinchlanamiz. Biz o‘zimizni dunyoda sodir bo‘layotgan hodisalar tasviri so‘zlar orqali kitobda aks etganini tasavvur eta boshlaymiz. Bularning barchasiga sabab mutolaa stressni kamaytirishidir. O‘qish bizning so‘z boyligimizni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlarga qaraganda, kitob mutolaasi bilan shug‘ullanuvchilarning so‘z boyligi boshqa insonlarga nisbatan yuqori bo‘lishi isbotlangan va shu sababli ular boshqalarga aytishni xohlagan so‘z ifodalarini juda

ham osonlik bilan ifodalab beradilar. Qisqa qilib aytganda, qancha ko‘p o‘qisangiz shuncha ko‘p so‘z boyligiga ega bo‘lasiz. Shuningdek, kitoblar shubhasiz bilimlar xazinasidir.

Xulosa shuki, kitob – inson umrini nurafshon qiladigan, uni yaxshilik, ezgulik, bunyodkorliklar sari undaydigan ilhombaxsh manbadir. Qalbingiz ziyo nuri bilan nurafshon bo‘lsin, aziz mushtariylar. Farzandlarimiz yaratuvchanlik, ijodiy qobiliyatga ega, bilimli, erkin fikrlovchi, hayotsevar bo‘lib voyaga yetishida tilakdoshmiz! Kitobxonlik maqsadlarini amalga oshirishda har bir oilaga yangicha yondoshuvlar tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madraximova Mastura, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik faoliyatini shakllantirish muammolari va metodlari, Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya: Nukus -2014.
2. Михеева, Елена Николаевна кандидат педагогических наук диссертация– 2002г. 24 сг.
3. Nuraliyeva N. B. Boshlang‘ich ta’limda triz-texnikasini qo‘llanishi | journal of new century innovations .Home / 2.Archives / 3.Vol. 7 No. 4 (2022): Volume-779 80-betlar.
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/09/01/school-library/>